

**AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIIY-MADANIY
TRANSFORMATSIYASI**

Ibrohimova Mohidil Murotali qizi

Tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotga integratsiyalanishi hamda transformatsiyalashuv jarayonining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqola zamonaviy sotsiologik nuqtai nazardan jin-siy tenglik, raqamli inklyuziya, mehnat bozoridagi o'zgarishlar, ta'lim va kasbiy rivojlanish hamda gender siyosatining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali amalga oshayotgan o'zgarishlarini muhokama qiladi. Xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, xotin-qizlar, transformatsiya, raqamli inklyuziya, gender tenglik, AKT.

Axborotlashgan jamiyat nazariyasi turli maktablar tomonidan talqin qilingan. Ba'zilar (informatsion jamiyat nazariyasi) ishchi kuchining bilimga asoslangan bo'lishi hamda axborot oqimlarining iqtisodiy qiymatga ega bo'lishini ta'kidlash, boshqalar madaniy va siyosiy o'zgarishlarga urg'u beradi. Gender sotsiologiyasi esa xotin-qizlarning ijtimoiy o'rni, imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qilishda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Axborot texnologiyalari va jinsiy tenglik bo'yicha tadqiqotlar xotin-qizlar uchun raqamli platformalar nafaqat imkoniyat balki yangi xavflar (masalan, onlayn zo'ravonlik, raqamli xavfsizlik muammolari) manbai ham ekanligini ko'rsatadi.

Azaldan o'zbek millatida ayol va ona siymosiga ulkan ehtirom ko'rsatiladi va uni e'zozlanadi. Shu boisdan yurtimizda ayollar huquqlarini himoya qilish ular uchun yashash sharoitlarini yanada yaxshilash uchun keng qamrovli sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Ayollar hayotdan rozi bo'lib yashashi uchun sidqidildan xizmat qilishga tayyormiz" – deya ta'kidlaydi. Ayollar jamiyatning hayotida muhim o'rni bo'lganligi bois butun jamiyat va uning kelajagi ularga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, "o'zbek xalqi azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug' ne'mati, tengsiz mo'jizasi, deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi. Ayolning nafosati va nazokati, vafo va sadoqati, aql-zakovati va fidoyiligi asrlar mobaynida yer yuzida hayot davomiyligi va abadiyligiga asos bo'lib keladi. Shu bois ham dunyodagi eng buyuk san'at asarlari, qo'shiq va qasidalar, me'moriy obidalar ayollar sha'niga bag'ishlangandir"[1]. Jumladan, "Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi", – deb davom ettirdi o'z fikrlarini Shavkat Mirziyoyev. Shuning uchun ham O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasi mamlakatda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi madaniyatini tashuvchi va avloddan avlodga yetkazib beruvchanlik xususiyatlari xotin - qizlarning an'ana va qadriyatlariga sodiqligi va asrab - avaylashi tufayli umrboqiydir. Shunga ko'ra, o'zbek ayollari etnomadaniyatini bilmasdan turib, o'zbek xalqi tarixi va madaniyatini keng tushunish oson emas.

Ayol so'zi o'zbek tilida ayol jinsiga mansub insonni ifodalaydi. Bu so'zning kelib chiqishiga doir bir nechta taxminiy lingvistik qarashlar mavjud. Ayol atamasi biologik va ijtimoiy jihatdan ayollik xususiyatlariga ega, ayol jinsiga mansub shaxsni o'zida ifodalaydi. Shuningdek, qadimgi turkey tillardan

olingan bo'lishi mumkin degan faraz ham mavjud, manbalarda bu so'z "ay" (oy, chiroy, yorug'lik) va "ol" (olmoq, egallamoq) qismlaridan tarkib topgan deb talqin qilinadi. Ya'ni "oydan go'zallik, chiroy olgan" yoki "oyga o'xshash" degan ma'nolarni ifodalashi ehtimoli mavjud.[2] O'zbek tilida esa bu so'zning "ayal", "ayil", "ayol" kabi shakllari mavjud. Devonu

Lug'otit-Turk (XI asr, Mahmud Koshg'ariy) – bu asarda "ayal" so'zi turkiy til so'zlari qatorida keltirilgan bo'lib, ayol kishini anglatadi.[3] O'zbek tilining etimologik lug'atida "ayol" so'zining qadimgi turkiy shakllari va kelib chiqishiga oid ma'lumotlar berilgan.[4].

Biologik jihatdan ayol reproduktiv tizimli xomiladorlik, tug'ish va emizish xususiyatini ifodalasa, ijtimoiy nuqtai nazardan ayol atamasi jinsiy o'ziga xos identifikatsiyani ham ifodalab, uning turli ijtimoiy rol va me'yorlarini o'z ichiga oladi.

Qozoq, qirg'iz va qoraqalpoq tillarida "ayol" so'zining muqobillari quyidagicha: qozoq tili - әйел (äyel) – ayol, xotin, ayol kishi. Ba'zan қатын (qatyn) so'zi ham ishlatiladi, ammo bu hozirgi zamonda ba'zan **salbiy yoki past baho** beruvchi ma'noga ega; qirg'iz tili: аял (ayal) – ayol, xotin; катын (katyn) – qadimiyroq yoki norasmiy variant, ba'zan salbiy ma'no anglatishi mumkin; **qoraqalpoq tili: әйел** (äyel) – ayol, xotin. қатын (qatyn) – bu so'z ham mavjud, ammo hozirgi zamonda ba'zan kamsituvchi ma'noda ishlatiladi. Bu uch til turkiy guruhga mansub bo'lib, ularning "ayol" so'zlari ham **turkiy ildizga** ega. So'zlar ohangda ozgina farqlansa-da, ma'no jihatidan juda yaqin.

Ayol tushunchasi o'zbek jamiyatida azaldan "xotin, zaifa, ojiza, beka, shuningdek, ayolning jinsiy yetukligini ifodalaydigan alohida shakllar ham mavjud: qizaloq, qiz, juvon, kampir, momo; qarindoshlik nuqtai nazaridan – ona (oyi, aya), xotin, ahli ayol, buvi (ena, acha, opoqi, momo), qiz, o'gay ona, o'gay qiz, kelin, ovsin, qaynsingil, qaynopa, opa-singil, nabira, jiyan, turmush o'rtoq, xola, xolavachcha (amma), qaynona (momaqayna); ijtimoiy munosabatlar doirasida – qo'shni, hamkasaba, dugona va boshqalar. Umuman olganda, "ayol kishi" ni tavsiflash uchun o'zbek tilida minglab "leksik, frazeologik, paremik, aforistik, nomlar"[5] mavjud.

Ayol atamasi uzoq yillardan beri tahlil etib, o'rganilayotganiga qaramay hali to'liq tahlil etilmagan. Bu atamaning falsafiy, pedagogik, sotsiologik atalishi muvjud.

Ayol – bu biologik, psixologik va sotsiologik jihatdan murakkab va uyg'un tizimga ega bo'lgan ijtimoiy mavjudot bo'lib, u individual intellekt, hissiy barqarorlik, axloqiy qadriyatlar va jamiytdagi ko'p qirrali rollarni mujassamlashtiradi. Ayol tabiatan mehribonlik, sabr-toqat, estetik tafakkur, ijtimoiy javobgarlik hamda tahliliy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan sub'ektdir. U ijtimoiy institutlar (oilalar, ta'lim, mehnat bozori, siyosat va madaniyat) doirasida turli rollarni (ona, farzand, yetakchi, tarbiyachi, xodim, intellektual) bajaruvchi faol ishtirokchidir. Ayolning jamiytdagi o'rni va maqomi tarixiy sharoitlar, madaniy qadriyatlar, gender me'yorlari va ijtimoiy siyosat bilan belgilanadi. U faqat ijtimoiy rol ijrochisi emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarning tashabbuskori va tashuvchisi hamdir. Ayol ijtimoiy ong va ijtimoiy tenglik muammolarida asosiy diqqat markazida turuvchi ijtimoiy guruh vakili sifatida jamiytdagi ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va madaniy taraqqiyot indikatoridir. Shu sababli, ayol sotsiologik jihatdan jamiyatni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi dinamik kuch sifatida qaraladi.

O'lkamiz xalqlari tarixida ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rniga, axloqiy, badiiy - estetik jihatlariga, o'z burchlarini bajarishiga, insoniy huquqlariga munosabatlar turlicha bo'lgan. Zardushtiylik ayolni uy-xo'jalik ishlarini olib borishda, urf - odatlarni saqlash va marosimlarni o'tkazishda, hatto diniy tartiblarni

qaror toptirishda erkaklar bilan teng hisoblagan.[6] Manbalar ko'rsatadiki, zardushtiylik ayollarning ijtimoiy- madaniy, diniy hayotda qatnashish huquqlarini himoya qilgan, ularning oilaviy urf - odatlarni, marosimlarni asrashdagi o'rnini qayd etgan.[7]

Asrlar davomida ayol jamiyat chetiga surilib, kamsitish orqali marginallasuvga duchor bo'ldi. Turk xotin - qizlarining ijtimoiy hayotdagi o'rne va huquqi haqida L.N.Gumilyov quyidagilarni yozadi: "Xunlar o'sha davr fransuzlari, gotlari, arablari, slavyanlari va greklaridan ilg'or ham, orqada ham emas edilar. Ularning ijtimoiy hayotida va siyosatida xotin -qizlar faol ishtirok etgan, bu yerda xotin qizlar Xitoy, Hindiston va Erondagi kabi kamsitilmagan edi, bu turkiy qabilalarda xotin - qizlar huquqi baland edi.[8]

Sivilizatsiya tarixi ayol o'zining nimaga qodir ekanligini sezganidan keyin boshlanadi. Ungacha odamlar yovvoyi tabiatning bejilov istaklariga bandi yashaganlar." [9].

O'zbekistonda Ijtimoiy hayot transformatsiyasi monografiyasida Dunyoning o'zgarishi va inson ehtiyojlarining takomillashib borishi, sivilizatsiya insoniyat hayotiga ko'plab o'zgarishlarni olib kirishi natijasida xotin-qizlarga bo'lgan munosabat ham o'zgarib borishi, bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy qiyofasini aks ettiruvchi demokratik qadriyatlar qatoriga inson huquqlari, so'z erkinligi, yashash erkinligi, erkin kasb tanlash va bilim olish huquqi kabilar kiradi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-sohalarda keng mehnat qilayotganligining o'zi ham demokratik qadriyatlarga sodiqligini isbotlab turibdi. Xususan, xotin-qizlarning ijtimoiy qiyofasini shakllantiradigan va unga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri – bu ta'lim olish masalasidir. Aynan ta'lim olish va zamonaviy bilimlarga ega bo'lish huquqi va imkoniyatlari tufayli mamlakatimizda xotin-qizlar o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishga, zamon bilan hamnafas tarzda bugungi kunning erkin va ozod fuqarosi, biror bir kasbni egallagan professional xodim, raxbar ayol, siyosatchi yoki tadbirkor sifatida o'zini namoyon qilishga erisha olganligini alohida qayd etish lozimligi haqida fikrlar bildirib o'tilgan.

O'zbek mentalitetida ayol qiyofasi, asosan, milliy qadriyatlar va urf-odatlarga asoslangan an'anaviy obraz sifatida shakllangan. Ayol obrazida mehribonlik, sabr-toqat, oila va jamiyatga sadoqat kabi fazilatlar alohida ajralib turadi. Ushbu qiyofa jamiyatda ayolning o'ziga xos o'rne va ahamiyatini ifodalaydi.

Axborotlashgan jamiyatda ta'lim tizimi hamda kasbiy tayyorgarlikning roli oshadi. Xotin-qizlar uchun onlayn ta'lim platformalari, masofaviy kurslar va ochiq ma'lumot manbalari yangi bilimlar olish imkoniyatini yaratadi. Bu holat, ayniqsa, an'anaviy me'yorlar yoki geografik cheklavlar sababli an'anaviy ta'limdan yiroqda qolgan qizlar uchun muhim. Raqamli ko'nikmalar (digital literacy), kodlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va ijodiy muammolarni hal qilish kabi kompetensiyalar yangi mehnat bozorida talab yuqoriga ko'tarilmoqda. Natijada:

- Xotin-qizlar uchun kasbiy imkoniyatlar kengayadi – masalan, masofadan ishlash, freelancing, startaplar yaratish orqali iqtisodiy mustaqillik.
- Ta'limdagi noxolisliklar saqlanib qolsa ham (o'qishga kirishdagi gender stereotiplari, oilaviy majburiyatlar), onlayn ta'lim bu to'siqlarni qisman kamaytirishi mumkin.

Digital iqtisodiyot va xizmat ko'rsatishlar sektori kengayishi natijasida mehnat bozorining tuzilishi ham o'zgarmoqda. An'anaviy ish joylari avtomatlashtirilishi bilan birga, yarim-vaqtli, loyihaviy yoki platforma asosida ishlash modellariga talab oshmoqda.

Axborotlashtirish siyosiy faollikni ham o'zgartirdi – ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va onlayn kompaniyalar orqali xotin-qizlar jamiyat muammolarini ko'tarish, huquqiy namoyishlar tashkil etish va siyosiy

partiyalar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu mexanizm gender masalalarini ko'proq ko'tarish, yangi liderlar yetishishiga yordam beradi. Biroq, onlayn maydondagi salbiy hodisalar – intim-ma'lumotlarning tarqalishi, troling va onlayn zo'ravonlik – ayollarning faolligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli raqamli huquqiy himoya va raqamli madaniyatni oshirish muhim.

Axborot oqimlari madaniy andozalar va me'yorlarni ham shakllantiradi. Global medialar, onlayn kontent va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi identifikatsiyalar paydo bo'ladi – professional, ijtimoiy-harakatlar bilan bog'liq yoki madaniy guruhlar. Xotin-qizlar uchun bu o'zini anglash, yangi rol modellarini ko'rish va ijtimoiy normalarni qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Biroq mahalliy madaniyat va oilaviy tizim bilan ziddiyat yuzaga kelishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мирзиёев Ш.М. Ҳар қандай давлатнинг адолатли экани унинг хотин-қизларга бўлган ғамхўрлиги билан белгиланади - ТОШКЕНТ, 8 март - Sputnik. <https://sputniknews-uz.com/20220308/shavkat-mirziyoev-xotin-qizlarni-8-mart-bilan-tabrikladi-23201198.html> (08.03.2024)
2. Clauson, Gerard. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford: Clarendon Press, 1972.
3. Mahmud al-Kashgari. Dīwān Lughāt at-Turk, tahrir: Besim Atalay. Türk Dil Kurumu Yayınları, 1941–1943.
4. Ibrohimov A., Meliev O., Sharipov S. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent: Fan, 2000.
5. Адонина Л.В. Keltirilgan manba. – С.141
6. Периханян А.Г. Общество и право Ирана в парфянский и сасанидский периоды. -М.: Наука, 1983.
7. -С. 82-83.
8. Махмудов Т. «Авесто» ҳақида. -Т.: Шарқ, 2000; Бобоев Ҳ., Ҳасанов С. «Авесто»-маънавиятимиз
9. сарчашмаси. -Т.: Адолат, 2001.
10. Гумилев Л.Н. Древные тюрки. -М.: Товарищество «Клышников, Комаров и К », 1993. -С. 76-77
11. Алимасов В. Аёлсиз қошона – ғамхона // Маърифат, 2002, 7 март.